



**A. DAVLETSHINNING ESDALIQLARI TURKISTON O‘LKASI SUD
TIZIMI TARIXIGA OID MUHIM MANBA SIFATIDA**

Ro‘ziboyev Faxriddin Sohijjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu tezisda XIX asr oxirida Turkiston o‘lkasi sud tizimining umumiy ahvoli hamda A. Davlatshenning viloyatlardagi sud tizimini o‘rganish bo‘yicha olgan ma‘lumotlari asosida o‘lkaning an‘anaviy sud tizimi hamda imperiya tomonidan yo‘lga qo‘yilgan xalq sudlarining faoliyati, qozilik sudlarining ish jarayoni va xalq sudlarining tarkibi va vazifalari haqida ilmiy fikr va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sud, qozi, muftiy, a‘lam, mirzo, fatvo, Nizom, biy

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda ilm-fanga bo‘lgan e‘tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Buning natijasida fanning har bir sohasida katta ilmiy yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Bu albatta prezident Shavkat Mirziyoyevning yuritayotgan oqilona siyosati natijasidir. Xususan, prezidentimiz quyidagi fikrlari orqali tarixni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsadni bildirganlar: “...Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak[1].

Bugungi kunda tarix fani yangi maqsad va g‘oyalarda yangitdan tadqiq etilmoqda. Sovet hokimiyati davrida bir tomonlama o‘rganilgan bo‘lsa hozir holisona bor haqiqatni ochib berish tarixchilarni oldidagi ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Tarixning barcha davrlari singari yurtimiz hududida xonliklar mavjud bo‘lgan va Rossiya imperiyasi mustamlakaga aylantirgan davr ham qiziqarli albatta. Ayniqsa bu davrdagi huquq-tartibot tizimida ro‘y bergan transformatsion jarayonlar ko‘plab mahalliy va rus olimlari e‘tiborini tortgan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar ham bu soha tarixini qiziqish bilan tadqiq etgan. Jumladan, mahalliy tarixchilardan I. Shoev Turkiston general-gubernatorligi davrida huquq tizimini tahlil qilgan. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchi Paolo Sartori qozilik sudini tadqiq etgan.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bo'g'ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, sudlar va xalq sudlaridan tashkil topgan. Ularning birinchisi sof mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi. Sudlar hududiy bo'linishga ko'ra, tuman sudlari, xalq palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, dunyoviy masalalar bo'yicha ish yurituvchi sudlar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan. 1886-yildagi «Nizom»ga ko'ra mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etiladi. Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan «jinoyat»lar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag'darish maqsadida harakat qilgan siyosiy «jinoyat»chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi. Rus imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud islohoti tizimlari 1893-yil 2-iyunda tasdiqlandi. Toshkent shahrida sud palatasi, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarida bittadan okrug sudlari ta'sis qilinadi. 1899-yil 14-mayda Toshkent sud palatasining tantanali ochilish marosimi bo'ladi. U o'lkaning barcha sud organlari faoliyatini boshqarar va nazorat qilar edi[2]. Bu amalda sudlarning idoraviy tizimiga aylanishi edi. Chor hukumatining siyosiy tusga ega bo'lmagan barcha fuqarolik ishlari shariat va biy sudlariga topshirilgan edi. Mustamlakachilar shariat qonun-qoidalaridan istibdod negiziga qurilgan o'z tuzumlarini o'lkada barqaror qilishda unumli foydalanganlar. Shu maqsadda uni uch xil qilib tuzishgan. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun qozilar sudi, shu viloyatlarning ko'chmanchi aholisi uchun biy sudlari hamda Kaspiyorti viloyati uchun maxsus xalq sudlari faoliyat ko'rsatgan[3]. Turkistondagi yangi sud tizimi va mahalliy an'anaviy sud tizimi tarixini yoritishda o'sha davrda yashagan rus harbiy amaldori Abdulaziz Davletshinning Turkiston xalq sudlari haqida kundaliklariga yozgan esdaliklari muhib manba bo'lib xizmat qiladi. Uning esdaliklarining 2- bobi Turkiston o'lkasidagi xalq sudlarining holatiga bag'ishlangan. Jumladan, muallif bu haqida shunday yozgan: "...Turkiston o'lkasidagi xalq sudlari bilan yaqindan tanishish maqsadida sudyalarning sud



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

majlislarida bo‘lib, ular bilan birga sud daftarlarini ko‘zdan kechirdim. Mahalliy aholi bilan suhbatlashdim, har fursatdan foydalanib, mahalliy sud jarayonlari haqida so‘radim, tuman hokimligidagi vakolatli shaxslarning fikrini so‘radim, nihoyat, viloyat statistik tekshiruvi va viloyat qo‘mitasi materiallaridan meni qiziqtirgan ma‘lumotlarni qidirdim.

Sart xalq sudini ilk bor Samarqandda ko‘rdim, u yerda may oyining boshida Zakaspiy viloyatidan kelganman. Bu mahkama bilan faqat Turkiston Nizomida keltirilgan ma‘lumotlar va uning tushuntirish yozuvlari asosida tanish bo‘lganim uchun, men uni birmuncha boshqacharoq va qiyoslab bo‘lmas darajada soddaroq tasavvur qildim: men da‘vogarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yagona qoziga murojaat qiladilar, u nizolarni ko‘rib chiqadi va o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, shariat asosida qarorlar chiqaradi, deb taxmin qilgandim. Aslida, o‘troq aholi o‘rtasidagi sud juda murakkab va chalkash bo‘lib chiqdi. Har bir qozida (mahalliy xalq qozilarini hozirgacha bir xil nom bilan atashadi: o‘troq aholi orasida “qozi”, ko‘chmanchi aholi orasida esa “biylar” deb ataydilar, biz qisqalik uchun bu nomlarga amal qilamiz) bir necha muftiylar yoki shariat tarjimonlari bo‘lib, ularga a‘lamlar, ya‘ni katta muftiylar boshchilik qiladi. Suhbat ishtirokchilari qoziga murojaat qilishdan oldin muftiylardan rivoyat (fatvo) tanlashlari shart, ya‘ni shariatning tegishli talqini falon rivoyatning vakolatiga asoslanib, falon kishi u yoki bu narsaga bo‘ysunishidir. Rivoyatlar muftiylar tomonidan haq evaziga beriladi va tomonlar bir xil muftiy bilan emas, balki har xil muftiylar bilan maslahatlashishlari shart bo‘lganligi va har bir muftiy ma‘lum bir gapni o‘ziga xos tarzda va mijozining foydasiga talqin qilganligi sababli, rivoyatlarning ko‘p hollarda bir-biriga mutlaqo zid bo‘lishini tushunish mumkin. Ishlar ko‘rib chiqilsa, ular hozir bo‘ladi[4].

Muallif Samarqand viloyatidagi faoliyat yurituvchi qozilar haqida shunday fikr bildirgan “...Samarqandlik qozilarning barchasi oliy ma‘lumotli, shariatni yaxshi biladigan, o‘z sohasida tajribali bo‘lgan, shikoyatlarni ko‘rib chiqish juda tez va muammosiz bo‘lgan. Ular orasida Samarqand tumani qozisi mulla Niyoz Mamed Husaynboyev to‘rt yil davomida qozilik qilgan. Unga to‘rtta muftiy hamroh bo‘lib, munozara ishtirokchilariga fatvo (taqriz) beradilar. Bundan tashqari, qarorlarni yozib olish uchun maxsus mirza xizmat qiladi. Qoziga ko‘ra, u shariatga ko‘ra, bahsli summaning 1/2 foizi miqdorida mukofot oladi. Muftiylar tegishli talqinlarni



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

topish uchun sudlanuvchilardan ishning murakkabligiga qarab 20-30 tiyindan 5-6 rublgacha bo'lgan to'lovlarni undiradilar. Mirza sudlanuvchilardan ular uchun yozilgan har bir hujjat uchun 10-15 tiyin oladi.

Samarqanddan keyin Davletshin Farg'ona viloyatiga borib u yerdagi xalq sudining holati bilan tanishadi. Farg'ona sudini o'rganishdan olgan xulosalarini quyidagicha bayon qiladi: "... Turkman tuzumiga yaqinroq o'xshash sud bilan tanishish niyatida Samarqanddan Farg'ona viloyatining O'sh shahriga ko'chib o'tdim. Ammo ma'lum bo'lishicha, Farg'onadagi qirg'izlarning aksariyati allaqachon o'z ajdodlari sudidan voz kechib, shariat qonunlarini qabul qilgan. Bu o'zgarish Qo'qon xonlari hududni bosib olishdan avval qirg'izlar o'rtasida og'ir ishlarni ko'rib chiqish uchun o'z qozilarini tayinlaganligi, shu tariqa qirg'izlarning shariat qarorlariga o'rganib qolganligi, keyingi davrlarda ham davom etgani bilan izohlanadi. Lekin bilishimcha, odat bo'yicha suddan shariat bo'yicha sudga o'tish mintaqa ishg'ol qilingandan so'ng so'nggi bir necha yilni qamrab olgan holda sodir bo'lgan. Andijon xalq sudyalari qurultoyida 25 ta ish ko'rib chiqilib, istisnosiz barcha murojaatlar asossiz deb topilib, yakka tartibdagi sudyalarning qarorlari tasdiqlanishi kerak, deb topildi. Shu bilan birga, general Chaykovskiy xalq sudyalari faoliyatining eng zaif tomonlaridan biriga e'tibor qaratdi: vasiylik masalalarini boshqarish va bu masala bo'yicha hisobot berish tartibi. 158-sonli buyrug'iga xalq sudyalari uchun batafsil yo'riqnomalar ilova qilinib, ular maxsus bosma, kordonli daromad va chiqim daftarlari bilan ta'minlandi. Sudya marhumning ishlari va mullukidan xabardor bo'lgach, ularni yuqorida ko'rsatilgan kitobga yozib qo'yadi va kitobning bir nusxasini vasiyga topshiradi va butun merosni uning ixtiyoriga beradi[4].

Davletshin Farg'ona sud tizimini o'rganib bo'lganidan keyin Sirdaryo viloyatiga yo'l oladi va u yerdagi sud tizimini o'rganib chiqadi. Viloyatning sud tizimini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keladi: "...20 may kuni Toshkent shahar xalq sudyalarida ishlarning borishi bilan tanishdim. Sebzor dahasi qozisi Ishan-bobo Aziz-Yarxonov 1 yildan beri qozilik qiladi, u bilan birga 5 muftiy va bir mirzo bor. Davletshin Turkiston o'kasidagi faoliyat yuritayotgan sudlar bilan birma-bir tanishib chiqar ekan o'lka sud tizimi haqida shunday xulosaga keladi: "...Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Turkiston xalq sudi, shubhasiz, o'z faoliyatini tartibga solish



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

uchun hozir rejalashtirilayotganidan ko‘ra ko‘proq radikal choralar ko‘rishni talab qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu chora-tadbirlarning boshida ishlarni bir sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqishni bekor qilish va sudyalarning hay‘atidan iborat birinchi instantsiya sudini tashkil etish kerak[4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. 2018-yil 21-dekabr kuni O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrifi nutqidan: <https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar-hech-qaerda-joq>
2. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari); K.2.: /Mualliflar: R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O‘.Ubaydullayev; Mas’ul muharrirlar: O‘. Mavlonov, Q.Usmonov. – Taqrizchilar I. Alimov va boshq. – Toshkent: «Sharq», 2010.
3. Бобобеков Х, Каримов Ш, Содиков М, Усмонов Қ, Холбоев С, Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: «Шарқ», 2000.
4. Давлетшин А. Отчет капитана Давлетшина по командировке в Туркестанский край и степные области для ознкомления с деятельностью народных судов. –С.-Петербург: Типография М.М. Стасюлевича, 1901.